

## MIKROQARZ SHARTNOMASI

20\_\_yil «\_\_» \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining \_\_\_\_\_ filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi \_\_\_\_\_ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomondan, va jismoniy shaxs \_\_\_\_\_ (keyingi o‘rinlarda – Qarzdor/mijoz), ikkinchi tomondan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

### 1-§. Shartnoma predmeti

1. Bank ushbu Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida Qarzdorga/mijozga \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) so‘m mikroqarz beradi.
2. Mikroqarz \_\_\_\_\_  
*(naqd pulsiz shaklda filialda ochilgan plastik karta bo‘yicha maxsus*  
\_\_\_\_\_ *ajratiladi.*  
*hisobvarag‘iga o‘tkazish yo‘li bilan yoki naqd pulda)*
3. Qarzdor/mijoz tomonidan olingan mikroqarz hisobini yuritish uchun Bank unga tegishli mikroqarz hisobvarag‘i ochadi.

### 2-§. Shartnoma qiymati

4. Mikroqarzdandan foydalanganlik uchun Qarzdor/mijoz Bankka yillik \_\_\_\_ foiz hisobidan mikroqarzning amaldagi qoldig‘iga hisoblangan foiz to‘laydi.  
Mikroqarz ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq o‘z vaqtida qaytarilmasa, muddati o‘tgan qarzdorlik uchun yillik \_\_\_\_ foiz hisobidan foiz hisoblanadi
5. Mikroqarz bo‘yicha foiz Bank tomonidan har kuni ushbu Shartnomaning 4-bandida belgilangan foiz stavkasi bo‘yicha berilgan sanadan boshlab amaldagi kunlar sonidan kelib chiqqan holda Qarzdorning/mijozning mikroqarz hisobvarag‘i qoldig‘iga nisbatan hisoblab boriladi va har oyning 11-sanasida undiriladi.  
Mikroqarz to‘lovi dam olish kunlariga to‘g‘ri kelsa, hisoblangan foizni to‘lash dam olish kundan keyingi birinchi bank ish kunida, dam olish kunlarda hisoblangan foizni hisobga olgan holda, amalga oshiriladi.  
Mikroqarz foizi bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan qarzdorlik vujudga kelganda, Qarzdor/mijoz to‘lov muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun muddati o‘tgan foiz qiymatining 0,5 foizi, biroq muddatida to‘lanmagan foiz qiymatining 50 foizidan oshmagan, miqdorda penya to‘laydi, penya to‘lanishi Qarzdorni/mijozni muddati o‘tgan foizni to‘lashdan ozod qilmaydi.

### 3-§. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

6. Bank quyidagi huquqlarga ega:
  - a) Qarzdorning/mijozning to‘lovga layoqatlilik qobiliyatini yanada to‘laroq tahlil qilish uchun undan qo‘shimcha hujjatlar talab qilish;
  - b) mikroqarz belgilangan muddatda so‘ndirilmaganda, mikroqarz qaytarilishi yuzasidan ushbu Shartnoma shartlarida belgilangan tegishli choralarni ko‘rish;
  - v) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to‘lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o‘z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish; *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori*

*bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

g) talabnoma yetkazilgandan so'ng o'ttiz kun ichida Qarzdor/mijoz unda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, tegishli talab bilan sudga murojaat qilish. *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

*Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq "v" kichik bandi "d" kichik bandi deb hisoblandi:*

d) mikroqarz yuzasidan asosiy qarz va/yoki foiz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik paydo bo'lganda, ushbu qarzdorlikni kafildan aksepsiz tartibda undirish.

7. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

a) mikroqarzni Qarzdorga/mijozga 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ dan 20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_ gacha bo'lgan muddatga berish;

b) Qarzdorning/mijozning so'rovi bo'yicha mikroqarz hisobvarag'ining holatiga oid ko'chirmani taqdim qilish;

v) mikroqarzni muddatidan oldin undirish sabablari haqida Qarzdorni/mijozni xabardor etish;

g) kredit bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda Qarzdor/mijoz zimmasidagi qarz yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 kalendar kuni davomida har qanday aloqa bog'lash usulidan, shu jumladan elektron aloqa vositasidan foydalanib, Qarzdorga/mijozga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida kreditni qaytarish grafigini ilova qilgan holda xabar berish; *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

d) Qarzdorni/mijozni ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlikni qaytarish majburiyatlari bajarilmaganligi holati, muddati, qiymati, tarkibi va oqibatlari haqida xabardor qilish, Qarzdordan/mijozdan muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelishi sabablari haqida so'rash; *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

e) Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarish va (yoki) hisoblangan foizni to'lash muddati buzilganda nizoni sudgacha hal qilish yuzasidan o'z talabnomasini Qarzdorga/mijozga yetkazish (ushbu talabnomada talabnoma tuzilgan sanadagi Qarzdorning/mijozning joriy qarzi miqdori va tarkibi, qarzni to'lash usullari, talabnomada ko'rsatilgan muddatgacha Qarzdor/mijoz o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatlari va nizoni suddan tashqari hal qilish usullari qayd etiladi); *(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi kichik band)*

yo) Qarzdordan/mijozdan mikroqarzning joriy to'lovi uchun mikroqarzni qaytarish grafigida belgilanganga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa, u holda kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismini mikroqarzning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirish hamda mikroqarz qiymatini qayta hisoblash. *(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan kichik band)*

8. Qarzdor/mijoz quyidagi huquqlarga ega:

a) mikroqarzning o'z vaqtida ajratilishini talab qilish;

b) ushbu shartnoma tuzilgandan keyin va Qarzdor/mijoz tomonidan pul mablag'i olingunga qadar bo'lgan davrda mikroqarz olishdan bepul asosda voz kechish;

v) mikroqarz bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni jarima sanksiyalarisiz istalgan vaqtda muddatidan oldin to'liq to'lagan holda Bank bilan ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilish.

*(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan*

*ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

9. Qarzdor/mijoz o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) mikroqarz ajratilgunga qadar mikroqarz ta'minotiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish va Bankka taqdim etish;

b) mikroqarz bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizni o'z vaqtida so'ndirish;

v) yashash joyi, ish joyi, familiyasi yoki ismi va ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlarga oid o'zgarishlar to'g'risida axborotni 5 (besh) bank ish kuni mobaynida Bankka taqdim etish;

g) ishdan bo'shayotganda mikroqarz va unga hisoblangan foizni muddatidan oldin so'ndirish.

#### **4-§. Tomonlarning javobgarligi**

10. Tomonlar ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi va jarimaga tortiladi.

#### **5-§. Nizolarni hal qilish**

11. Tomonlar ushbu Shartnomadan kelib chiquvchi nizolarni, tomonlarning o'zaro roziligiga ko'ra, nizoni hal qilishning suddan tashqari usullarini qo'llash, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali hal qilish majburiyatini oladi. *(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

12. Nizoni muzokara yo'li bilan hal etishning imkoni bo'lmasa, ushbu Shartnoma 7-bandining "e" kichik bandida qayd etilgan talabnomada belgilangan muddatda – o'ttiz kun ichida Qarzdor/mijoz unda ko'rsatilgan talablarni lozim darajada bajarmaganda, Bank tegishli talab bilan fuqarolik sudiga murojaat qilishga haqli hisoblanadi. *(Bank kengashining 2020 yil 24 fevraldagi 15-qarori bilan tasdiqlangan va 554-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjat tahriridagi band)*

#### **6-§. Shartnomaning boshqa shartlari**

13. Ushbu Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

13-1. Bank qarzdor/mijoz uchun ushbu shartnoma bo'yicha asosiy qarzni qaytarishning va hisoblangan foizni to'lashning masofadan turib amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. *(Bank kengashining 2019 yil 28 iyundagi 95-qarori bilan tasdiqlangan va 533-son bilan ro'yxatga olingan ichki normativ hujjatga muvofiq kiritilgan band)*

14. Qarzdor/mijoz vafot etganda uning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

15. Mazkur Shartnoma u imzolangan kundan boshlab to Qarzdor/mijoz tomonidan ushbu Shartnoma majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

16. Mazkur Shartnomaning bekor qilinishi tomonlarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o'zaro da'volarni (talablarni) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

17. Ushbu Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda tuzilib, tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganda qonuniy kuchga ega bo'ladi.

18. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari qo'llaniladi.

**7-§. Tomonlarning pochta manzillari va rekvizitlari**

Bank:

Manzili: \_\_\_\_\_

Tel.: \_\_\_\_\_ Faks: \_\_\_\_\_

Bank kodi: \_\_\_\_\_

Bank hisobvarag'i: \_\_\_\_\_

STIR: \_\_\_\_\_

Boshqaruvchi:

\_\_\_\_\_  
*Muhr*

Qarzdor/mijoz:

Manzili: \_\_\_\_\_

Telefon: \_\_\_\_\_

Tug'ilgan sanasi: \_\_\_\_\_

STIR: \_\_\_\_\_

Pasport: seriya \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

Qachon va kim tomonidan berilgan \_\_\_\_\_

(imzo)